

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-oktyabr oyida viloyatda bajarilgan

QURILISH ISHLARI

KO'RSATKICHLAR:

*Qurilish-montaj ishlari
hajmi – 2028.8 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi – 3.6 foiz*

*Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi – 53.5
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi
– 42.9 foiz*

2018 yilning yanvar-oktyabr oyi bo'yicha viloyatda 2028.8 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105.8 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan 10.4 foiz o'sdi.


Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 74.1 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117.4 foizni tashkil etdi.

Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 74.1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 117.4 foizni tashkil etdi. Shu jumladan,

Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 40.5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 104.1 foizni tashkil etdi.


Jalaququq tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 22.1 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 144.8 foizni tashkil etdi.

Ulug'nor tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 11.5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 145.9 foizni tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 1085.3 mlrd. so'mni, tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105.8 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da




Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1969.2 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 107.2 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10.8 foiz o'sdi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 59.7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 72.7 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2.4 foiz kamaydi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 869.4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 104.9 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 649,4 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 162.7 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 57.3 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika
qo'mitasi**

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37